

## MILLIY ARMIYADA AXLOQIY VA RUHIY TARBIYANING AHAMIYATI

*Ataxanov Shuxrat Turaxanovich*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti*

*harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada vatan himoyachilarini milliy va jangovar ruhda tarbiyalashda harbiy an‘analarning dolzarbligi, shuningdek vatan himoyachisi o‘z ornomusi, sha‘ni, sharafi, qadr qimmat va Vatanga muhabbat tuyg‘usini shallkatirish, ona yeriga, tiliga, madaniyati va an‘analariga bog‘liqligi, hamda o‘z Vatanga, xalqiga sodiqlik bilan uning tarixi o‘tmishdagi avlodlar bilan faxrlanishi, Vatanining manfaatlarini himoya qilishga intilish sifatleri haqida yozib o‘tilgan.

**Tayanch iboralar:** ta‘lim-tarbiya, vatanparvarlik, sadoqatli, yuksak, ma‘naviy ma‘rifiy tarbiya masalalari. Milliy ruh, jangovar ruh, xavfsizlik, Qurolli Kuchlar, harbiy an‘analar, or-nomus, sha‘ni, sharaf, qadr qimmat.

## ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ АРМИИ

Атаханов Шухрат Тураханович

Преподаватель учебного центра военной подготовки

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается актуальность воинских традиций в воспитании защитников Отечества в национальном и боевом духе, а также необходимость формирования у защитников Отечества чувства чести, достоинства, гордости и любви к Родине, привязанности к родной земле, языку, культуре и традициям, преданности своей Родине и народу, гордости за прошедшие поколения, в ней говорится о качествах стремления защищать интересы своей Родины.

**Ключевые слова:** вопросы образования, патриотизма, верноподданнического, высокого, духовного и просвещенного воспитания. Ценны национальный дух, боевой дух, езопасность, Вооруженные силы, воинские традиции, честь, достоинство и бгордость.

THE IMPORTANCE OF SPIRITUAL AND MORAL  
EDUCATION IN THE NATIONAL ARMY

---

Ataxanov Shuxrat Turaxanovich  
Teacher of the Military Training Center  
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

**ANNONTATION**

The article examines the relevance of military traditions in educating defenders of the Fatherland in a national and fighting spirit, as well as the need to develop in defenders of the Fatherland a sense of honor, dignity, pride and love for the Motherland, attachment to their native land, language, culture and traditions, devotion to their Motherland and people, pride in past generations, It talks about the qualities of the desire to protect the interests of one's homeland.

**Key words:** issues of education, patriotism, loyal, high, spiritual and enlightened upbringing. National spirit, fighting spirit, security, the Armed Forces, military traditions, honor, dignity and pride are valuable.

Hozirgi davrda mamlakatimiz vatan himoyachilarini milliy va jangovar ruhini rivojlantirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirish hamda turli xil tahdidlardan asrash, ularning xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatini anglab yetishi, ushbu voqeliklar yuzasidan xolis va mustaqil fikrga ega bo'lishi, vatan himoyachilari e'tiborni kuchaytirish, ularni jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlariga, ma'naviy va mafkuraviy ishlarga, madaniyat, san'at, jismoniy tayyorgarlik va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, vatan himoyachilari o'rtasida harbiy vatanparvarlikni, harbiy burchni, xalqparvarlikni targ'ib qilish, dunyoda sodir bo'layotgan harbiy va siyosiy hodisalar bo'yicha bilimlarini oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev “Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi” deb ta'kidlaganidek, har qanday tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga tayyor milliy armiyamiz — xalqimiz, mamlakatimizning ishonchli va mustahkam qalqonidir. Shuning uchun biz hozirgi kunda harbiy kadrlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratyapmiz. Ya'ni, har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g'urur kuchli bo'lishi kerak. Milliy ruh, bu — yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi. Kelajakda harbiy bo'lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini qaerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O'z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning

ishonchi, g‘amxo‘rligi va e‘tiboridan oladi. Yoshlarga hamisha o‘rnak va namuna bo‘lib kelayotgan siz kabi chinakam fidoyi harbiylardan oladi, — dedi Prezident.

Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma‘naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning dahlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko‘p uchraydi. Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr Vatan himoyachisidan o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z mutaxassisligini, fanini chuqur bilishni, yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Bizga ma‘lumki, ilg‘or jamiyat fuqarosining, vatan himochilarining ma‘naviy boyligi - uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlarga boyligi bilan baholanadi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari ofitserlar korpusi o‘z hayotlarini Vatanimiz havsizligi, xalqimizning tinch va osuda turmushi, yurtimizning porloq kelajagi uchun jonlarini fido qilishga tayyor, buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan tarixiy mardliklarini o‘zida mujassam etgan jamiyatimizning vatanparvar o‘g‘lonlari, professional jangchilari va oliyjanob fidoyi fuqarolaridir! Shunday ekan ofitser, ushbu oliyjanob kasb egalari haqida qanchalik faxrlanib gapirsak, ular haqida badiiy asarlar, hujjatli va badiiy filmlar yaratsak, she‘rlar, dostonlar, ularning hayoti, mardligi, jasurligi, vatanparvarligi, fidoiyligi haqida kitoblar yozsak, jonajon ona vatanimizning kelajagi bo‘lmish o‘tib-ulg‘ayib kelayotgan barkamol yosh avlod uchun ular na‘muna sifatida hamisha o‘rnak bo‘lishlariga ishonchim komil! O‘zbek xalqining o‘tmishini mashhur olimlar va davlat arboblari bilan birga, Mahmud G‘aznaviy, Sotuq Bug‘roxon, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur, Shayboniyxon, Ubaydullaxon Birinchi, Abdullaxon Ikkinchi kabi mashhur yirik askarboshilar ham bezab turadi. Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash, vatanga sadoqatlik ruhiyatini oshirishning meyoriy asoslari va moddiy texnik bazasi yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-sonli Farmonida xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ruyobga chiqarish, harbiy fuqoroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, ustuvorligi,

xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari ta’kidlanadi.

Shuningdek, “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish, shuningdek qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida qo‘shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish masalalari keng doirada yoritib o‘tilgan.

Respublikamizda so‘ngi yillarda vatan himoyachilarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash, Vatanga sadoqatlik ruhiyatini oshirishning meyoriy asoslari va moddiy texnik bazasi yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatlarida “Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona yo‘lidir” deb ta’kidladilar. Bu esa, bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hamda ularning ichki dunyosi va axloqiy majburiyatini oshirishda alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli Qarorida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish, bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilishi, mazkur g‘oyaning asosiy mazmun va mohiyati o‘sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, milliy ruh va g‘ururni yuksaltirish, bebaho boylik — tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo‘lganda, mamlakat

suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Qurolli Kuchlar va kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlar samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish hamda yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish ham muhim vazifa. Ushbu yo‘nalishda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risida nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari maqsadi va asosiy vazifalarini, ta’lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, ta’lim tizimini boshqarish tartibini belgilaydi. Ta’lim oluvchilarni mutaxassislik fanlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan holda o‘qitish, intellektual jihatdan kamol topishi va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalari faoliyatining maqsadi hisoblanadi. O‘tgan yili harbiy qismlarda ilk bor “Amir Temur jangovar bayrog‘i uchun” musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, harbiy an‘analarni yanada mustahkamlash, buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur, bilimli va jismonan baquvvat Vatan himoyachilarini tarbiyalashda ushbu musobaqalar beqiyos ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli Qarorida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish, bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida amlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas‘ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilishi, mazkur g‘oyaning asosiy mazmun va mohiyati o‘tib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, milliy ruh va g‘ururni yuksaltirish, bebaho boylik — tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo‘lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligi alohida ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga

oshirilayotganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” Qarorida “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini har tomonlama yetuk, sog‘lom, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli, vatanparvar harbiy xizmatchilar bilan butlash, ularning ongida milliy g‘urur, ona yurtga sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish, harbiy xizmatni o‘tash tartibini optimallashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy jihatdan ta‘minlanishini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar etib belgilangan”.

**Xulosa.** Vatan himoyachilarida milliy va jangovar ruhni rivojlantirishda harbiy vatanparvarlik juda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko‘rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini vatan himoyachilarimizning ongiga singdirish lozim bo‘ladi.

Harbiy vatanparvarlikni, uning mohiyati, mazmuni va maqsadlarini vatan himoyachilari o‘rtasida keng targ‘ib etish aynan ularning milliy va jangovar ruhda tarbiyalanishiga asos bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 avgustdagi “Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” 259 sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli qarori.